



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 4

## O`SMIR YOSHDAGI O`QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aytmuratova Elvira Yersultanovna

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD) M.Djolimbetova*

*Annotatsiya ushu maqolada o'quvchilarda kreativ fikrlarni shakillantrishda e'tibor qaratiladigan jihatlar o'r ganilgan bundan tashqari pedagogik psixologik omillarni hisobga olgan holda o'quvchilarga yondashish usullari haqida ma'lumotlar keltrib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar** kreativlik, kreativ fikr, aqiliy mehnat, moslashuvchanlik, innovotorlik qobilyat.

### Kirish

O'smirlilik davri taqlidchanligi hissiyotliligi, mardligi tantiligi o'ziga hos psixologik hususiyatlari bilan farqlanuvchi shaxsdir, bu davrning asosiy ko'zga ko'rindigan xususiyatlardan biri kreativlik qobilyatining nomoyon bo'lishidadir o'smirning eng muhim hususiyatlardan yana biri aqlning tanqidiyligiga ko'ra munosabatining tez rivojlanishiga bog'liq jarayonlar uning kreativlik qobilyatini faollashtiradi. O'smirning psixik o'shini harakatga keltruvchi kuch bu uning kreativlik qobilyating rivojlanishimi kreativlik qobilyat deganda nimani tushinamiz

Kreativlik (lot...ing. Create yaratish, creative, yaratuvchi ijodkor) o'smirlarning yangi g'oyalalarini ishlab chiqishiga tayyorgarlikini tafsiflovchi mustaqil omil sifatida iqdidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobilyat manosini ifodalaydi, shaxsning kreativligi ularning taffakurida muloqat his tuyg'ularida muayyan faoliyat turlarida nomayon bo'ladi o'smir yoshdagi o'quvchilarning kreativlik qobillyatlari hozirgi kunda kundan kunga ortib bormoqda kreativlik qobilyat iqdidorning muhim omili sifatida aks etadi qolaversa zexni o'tkirligini belgilab beradi Kreatvlik otasi nomi bilan mashxur bo'lgan Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan uning olib brogan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki kreativlik ko'nikmalarni shakillantrish va ularni baxolash mumkin

1. Ravonlik ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi, o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik boshqalarga o'xshamagan ajralib turadigan g'oyani o'ylab topish degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik g'oyalarni kengayrtish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 4

Shu qatorda Patti Drepeua ham insonda kreativlik sifatlarini muvofoqiyatli rivojlantrishning to`rtta yo`lini ko`rsatib o`tgan

- . Kreativ fikrlash ko`nikmasini shakillantrish
- . Amaliy kreativ harakat ko`nikmalarni rivojlantrish
- . Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish
- . Kreativ mahsulot ishlanmalaridan foydalanish

Patti Drapeauning fikricha bir insoning ayniqa o`qituvchining kreativligi boshqalarning ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Kreativ fikrlash bugungi o`smirlar ega bo`lishi kerak bo`lgan muhim ko`nikma bo`lib, bu konikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o`zgarayotgan oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko`nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko`maklashadi umuman olganda bugungi o`quvchi kelajakda hatto hozir mavjud bo`lmagan sohalarda ishlashi yangi muammolarni yangi ko`nikmasini shakillantrish ularga tabora murakkablashayotgan mahaliy global muammolarni noandatiy yondashuv orqali xal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantrishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan chekylanmaydi maktab yoshlar uchun o`z qobiliyat ko`nikmalarini, shu jumldan ijodiy istidodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga egadir, kreativ fikrlash o`quvchilarning ta`lim olishini hodisalar tajribalar xatti harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo`llab quvatlaydi. O`quvchining qizuquvchanligi ta`lim jarayonida qo`l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa ozoro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi. Hattoki avvaldan belgilangan ta`lim maqsadlari konteksitida ham samara beradi, maktab o`quvchisining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun barcha o`quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta`limning yangi shakillari yo`lga qo`yilishi zarur. Bu ayniqa ta`lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o`quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o`z fikrini ayta olishiga salohiyatini ochishga hizmat qiladi. Insonning ruxiy xususiyatlarni rivojlana borishi (aql idroq iroda diqqat, va hakozalar xayotda o`z o`rnini topa olishi xalq ravnoqi yo`lida fidakorona xizmat qilshi etiqod masalalarida og`ishmasdan komil inson sifatida shakillanishiga sababchi bo`ladi bunday sifatlarni shakillantrishida maktab bosqichida boshlang`ich sinfdan boshlab ularning ta`lim bilan birgalikda tarbiya masalasiga ham alovida etibor qaratiladi. Va shundagina kutilgan natijaga erishadi yangi bilimlarni o`zlashtirish bilan bog`liq vaziyatlarda esa ularni eslab qoluvchi qobiliyatlarini rivojlantruvchi mustahkamlovchi metodlardan foydalilanadi. Yangi metodlarni eslab qolishi, esda saqlash, esga tushirish eslash



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



**Volume: 2 Issue: 4**

usullarini o`rgatish mantiqiy xotirani asosidir. O`quvchi xotirasiga tayanib mantiqiy mashiqlarni bajarsa, ulardagi bilimga bo`lgan qiziqish kuchayadi. Va dars jarayonida mahsuldarlik ortadi, o`quvchilar ham o`qituvchilar ham darsga masulyat bilan yondashadilar. Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo`llaganligi qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar pesh qadamlikka va o`z kamolatiga erishishdir. Kreativlik bu xayoliy qarash baxo berish qobiliyatidir. Demak bu tushinchani biz pedagogning individual qobiliyatiga kirta olamiz va biror bir tilni o`rgatishda asosiy amalyotda qo`llanilib natijaga erisha oladigan tushincha sifatida foydalana olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Egamberdiyeva N. Xodjayev B. Pedagogikani ayrim dolzarb muammolari mohiyat talqin va yechim fan texnologiya 2013
2. Ismoilov A. Kreativ fikrlashni baxolash.” Toshkent talim sifatini baxolash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo`limi “2021
3. Drapeau Patti. Sparkning student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving) Alixandria- Virginia, USA:ASCD,2014
4. E.G` G`oziyevning “ psixologiya”,” o`qituvchi” nashiryotmatba ijodiy uyi Toshkent 2013
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)